

BOSHQARUV USLUBLARI VA ULARNING TURLARI

Boboxodjaev Rashidjon Xashimovich

*Toshkent davlat transport universiteti, filologiya fanlari nomzodi,
dotsent, “Tahririy nashriyot va poligrafiya” bo‘limi boshlig‘i*

Annotatsiya: Ushbu maqolada rahbarlikning mohiyati va boshqaruv uslublarning turli shakllari tahlil qilingan. Xususan, Abu Nasr Forobiyning ta’limotlari asosida ideal rahbar shaxsiyatiga qo‘yiladigan talablar keng yoritilgan. Shuningdek, ta’lim muassasalarida samarali boshqaruvni amalga oshirish uchun rahbarda mavjud bo‘lishi lozim bo‘lgan kasbiy qobiliyatlar va ma’naviy xislatlar tavsiflangan. Maqola rahbarlikni san’at va kasb sifatida baholaydi va zamonaviy ta’lim tizimida uning o‘rnini belgilaydi.

Kalit so‘zlar: boshqaruv, boshqaruv uslubi, avtoritar uslubi, demokratik uslub, liberal uslub, rahbar tiplari.

Annotation: This article analyzes the essence of leadership and various management styles. In particular, it highlights the requirements for the ideal leader's personality based on the teachings of Abu Nasr al-Farabi. The paper discusses the professional and moral qualities necessary for effective management, especially in educational institutions. Leadership is presented not merely as a position, but as an art and profession essential to the advancement of the educational system

Keywords: management, leadership style, authoritarian style, democratic style, liberal style, types of leaders.

Rahbarlik–turli xil vazifalarning to‘plami yoki amal kursidan iborat emas, balki kasbdir. Demak, rahbarlik qilish uchun insondan zarur xarakter, bilim, ko‘nikma, malaka, mahorat, kasbiy nazokat, tajriba, qobiliyat va o‘ziga xos xususiyat talab etiladi.

Abu Nasr Forobiy ta’limotida, ta’lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni hamda ularni boshqara oladigan qat’iyatli, bilimdon va talabchan rahbarlarni tarbiyalashga qaratilgan bo‘lib, u o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida rahbarlarga tegishli xislatlarni keng yoritadi.

Bunday shaharga hokim bo‘ladigan odam (Allohdan boshqa) hech kimga

bo'ysunmasligi kerak. Fozillar shahrining birinchi boshlig'i bu shahar aholisiga imomlik qiluvchi oqil kishi bo'lib, u tabiatan o'n ikkita xislat- fazilatni o'zida birlashtirgan bo'lishi zarur.

Birinchiidan, fozillar shahri hokimi avvalo to'rt muchali sog'-solim bo'lib, o'ziga yuklangan vazifalarni bajarishda biror a'zosidagi nuqson xalal bermasligi lozim, aksincha, u sog'-salomatligi tufayli bu vazifalarni oson bajarishi lozim.

Ikkinchiidan, bunday shahar hokimi tabiatan nozik farosatli bo'lib, suhbatdoshining so'zlarini, fikrlarini tez tushunib, tez ilg'ab olishi, shu sohada umumiy ahvol qandayligini ravshan tasavvur qila olishi zarur.

Uchinchiidan, u anglagan, ko'rgan, eshitgan, idrok etgan narsalarni xotirasida to'la-to'kis saqlab qolishi, barcha tafsilotlarini unutmasligi zarur.

To'rtinchiidan, u zehni o'tkir, zukko bo'lib, har qanday narsaning bilinar-bilinmas alomatlarini va u alomatlari nimani anglatishini tez bilib, sezib olishi zarur.

Beshinchiidan, u fikrini ravshan tushuntira olish maqsadida, chiroyli so'zlar bilan ifodalay olishi zarur.

Oltinchiidan, u (ustozlardan) ta'lim olishga, bilim, ma'rifatga havasli bo'lishi, o'qish, o'rganish jarayonida sira charchamaydigan, buning mashaqqatidan qochmaydigan bo'lishi zarur.

Yettinchiidan, taom yeyishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat emas, aksincha, o'zini tiya oladigan bo'lishi, (qimor yoki boshqa) o'yinlardan zavq, huzur olishdan uzoq bo'lishi zarur.

Sakkizinchiidan, u haq va haqiqatni, odil va haqgo'y odamlarni sevadigan, yolg'onni va yolg'onchilarni yomon ko'radigan bo'lishi zarur.

To'qqizinchiidan, u o'z qadrini biluvchi va nomus-oriyatli odam bo'lishi, pastkashliklardan yuqori turuvchi, tug'ma oliyhimmat bo'lishi, ulug', oliy ishlarga intilishi zarur.

O'ninchiidan, bu dunyo mollariga, dinor va dirhamlarga qiziqmaydigan (mol-dunyo ketidan quvmaydigan) bo'lishi zarur.

O'n birinchiidan, tabiatan adolatparvar bo'lib, odil odamlarni sevadigan, istibdod va jabr-zulmni, mustabid va zolimlarni yomon ko'ruvchi, o'z odamlariga ham, begonalarga ham haqiqat qiluvchi, barchani adolatga chaqiruvchi, nohaq jabrlanganlarga madad beruvchi, barchaga yaxshilikni va o'zi suygan go'zalliklarni ravo ko'ruvchi bo'lishi zarur.. O'zi haq ish oldida o'jarlik qilmay, odil ish tutgani holda har qanday haqsizlik va razolatlarga

murosasiz bo'lishi zarur.

O'n ikkinchidan, o'zi zarur deb hisoblagan chora-tadbirlarni amalga oshirishda qat'iyatli, sabotli, jur'atli, jasur bo'lishi, qo'rqqoqlik va hadiksirashlarga yo'l qo'ymasligi zarur. Lekin rahbar bo'lib ishlamoqchi bo'lgan yoki rahbar etib tayinlangan shaxslarning hammasi ham yuqoridagi talablarga javob bera oladi, deb bo'lmaydi, chunki Rahbarlik qilish: katta san'at; maxsus mazmunga ega bo'lgan kasbiy faoliyat; faoliyatni takomillashtirishga qaratilgan ijodiy faoliyat; pedagogik boshqaruvdir.

Aslida boshqaruv – rahbarlik faoliyati tarkibida odamlar bilan birgalikdagi faoliyat va ular o'rtasidagi muloqot hisoblangani uchun, rahbar va jamoa tomonidan bo'ladigan barcha harakatlar ta'lim muassasasi faoliyati uchun qulay va kerakli sharoitni yaratilishi hamda o'qituvchilar va o'quvchilar jamoasi o'rtasida o'zaro samimiy psixologik muhit va ijodiy faoliyatni tashkil etishga qaratiladi. Bu esa rahbardan xodimlarni bilish, ularning qobiliyat va bilim saviyalariga qarab ta'lim muassasasidagi o'quv-tarbiya jarayoniga tanlay bilish va o'z o'rniga tayinlay olish, kerakli ko'rsatma, buyruqlarni bera bilish va ularni to'liq bajarilishini talab qila olish to'g'ri qaror qabul qila olish, o'qituvchi va xodimlarning shaxsiy xususiyatlarini seza olish, joyida ularni imkoniyatlaridan foydalangan holda ishlata bilish kabi kasbiy qobiliyat va mahoratni talab etadi.

Xulosa: Maqolada rahbarlik faoliyatining ko'p qirrali jihatlari, xususan, ta'lim muassasalarida samarali boshqaruvni amalga oshirishda rahbar shaxsiyati va uning kasbiy mahorati muhim o'rin tutadi, degan xulosa chiqariladi. Forobiy ta'limotlariga asoslangan holda, ideal rahbar shaxsida mavjud bo'lishi lozim bo'lgan xislatlar ro'yxati berilgan. Bugungi kunda ta'lim tizimida yuzaga kelayotgan muvaffaqiyatlar va muammolarning ko'p jihatdan rahbarning salohiyatiga bog'liqligi ta'kidlanadi. Shunday ekan, rahbarlik lavozimiga tayinlanadigan shaxslarda nafaqat bilim, balki ma'naviy poklik, mas'uliyat hissi va fidoyilik kabi xususiyatlar ham ustuvor hisoblanishi lozim.

References:

1. Суюнова Д.Д. Корпоративное управление в акционерных обществах: пути использования цифровых технологий для улучшения управления //Европейский журнал исследований, развития и устойчивого развития (EJRDS), доступен онлайн по адресу: <https://www.scholarzest.com> Vol. 4 № 09. Сентябрь 2023 г. ISSN: 2660-5570.

2. Суюнова Д.Д. Научные взгляды на проблему использования цифровых технологий в повышении эффективности корпоративного управления. Научный электронный журнал экономического распространения и анализа, 31 июля 2024 г. <https://e-ITT.uz/index.php/eitt/article/view/1472/1379>.

3. Суюнова Д.Д. Научный подход к вопросу повышения эффективности корпоративного управления на основе использования цифровых технологий. (Актуальные проблемы развития бизнеса и предпринимательства в контексте цифровой экономики, международная научно-практическая конференция, 23 декабря 2022 г.)

4. Суюнова Д.Д. Научно-теоретический подход к реализации цифровой трансформации внедрения корпоративного управления в акционерных обществах. (Актуальные проблемы развития бизнеса и предпринимчивости в условиях цифровой экономики, международная научно-практическая конференция, 23 декабря 2022 г.).

5. Суюнова Д.Д. Анализ состояния внедрения и развития цифровой экономики в Узбекистане. (Цифровая трансформация в бизнесе и экономике, международная научно-практическая конференция, 21 июня 2023 г.).

6. Суюнова Д.Д. Пути использования автоматизированной информационной системы управления в обеспечении эффективности корпоративного управления. (Цифровая трансформация в бизнесе и экономике, международная научно-практическая конференция, 21 июня 2023 г.).

7. Суюнова Д.Д. Использование цифровых технологий в совершенствовании корпоративного управления. (Цифровая трансформация в бизнесе и экономике, международная научно-практическая конференция, январь 2024 г.).

8. Babaxodjayev, Rashid. "Некоторые методологические вопросы терминологии." учебная терминосфера по избранной специальности сборник материалов научно-практического семинара (2010).

9. Babaxodjayev R. Русский пласт в гидронимии Ташкента и Ташкентской области // Современные проблемы филологии. – 2020.

10. Babaxodjayev R. Русский пласт в гидронимии Ташкента и Ташкентской области // Современные проблемы филологии. – 2020.

11. Babaxodjayev R. Проблемы славянской лексикологии и фразеологии

//славянские языки: системно-описательный и социокультурный аспекты исследования. – 2017.

12. Бобоходжаев Р. Х. Применение интерактивных методов при дистанционном обучении русскому языку //Uzbek scholar journal. – 2022. – т. 10. – с. 179-182.

13. Boboxo'Jayev R. H. Learning foreign languages online //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 6. – С. 840-845.

14. Babaxodjayev R. Коммуникативные особенности функционирования эвфемизмов //содружество языков содружество культур. – 2017.

Бобоходжаев Р. Х. Применение интерактивных методов при дистанционном обучении русскому языку //Uzbek Scholar Journal. – 2022. – Т. 10. – С. 179-182.